
Turkiya davlatidan uskunalar olib kelindi

Rishton tumani "Birlashgan" mahallasi hududida joylangan "Qahramon" g'allachilik klasteri qoshidagi MTPda bugun yirik loyiha bo'y ko'rsatmoqda. "Qahramon" g'allachilik klasterida 6 mlrd.so'm qiymatga ega bug'doyni qayta ishlash loyihasi ko'rildi. Turkiyalik investorlar hamkorligida joriy yilda ishga tushirilishi rejalashtirilgan ushbu 60.0 tonnalik don qayta ishlash un zavodiga bugun Turkiya davlatidan uskunalar to'liq yetib keldi.

Turkiya davlatidan olib kelingan, zamonaviy un mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasining kunlik ishlab chiqarish quvvati 60 tonnaga teng

Mazkur zavod Navro'z bayrami arafasida foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, uning natijasida 15 nafardan ortiq yoshlar ish bilan ta'minlanadi.

2023-01-11 14:11:51